

KIMYODA MASALALARINING O'RNI

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, assistant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20266310>

Kimyoviy masalalarni tasniflash. Tasniflashsiz, masalalarni ularni echish usullariga, o'quv materialining mazmuniga va uni o'rganish vaqtiga ko'ra standartlarga muvofiq turlari, masalalarning xususiyatiga qarab yoki boshqa sabablarga ko'ra guruhlariga taqsimlamasdan turib, masalalar tizimini shakllantirish mumkin emas. Kimyoviy masalalarning ma'lum tasniflari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalalarni ikki turga bo'linishi tortishuvlarga sabab bo'lmaydi: sifat va hisoblash [1]. **Sifat masalalar** bajarish jarayonida hisob-kitoblarni talab qilmaydi, ular eksperimental tarzda echilishi yoki kimyoviy reaksiyalar tenglamalarini tuzish, qurilmalar uchun konstruksiyalarni yig'ish va hokazolardan iborat mashqlar xarakterida bo'lishi mumkin. Ko'pgina mualliflar ularni echish usuliga ko'ra ajratadilar: og'zaki usullar bilan yoki amaliy ravishda bajariladigan va eksperimentlar yordamida bajariladi [2]. Har bir guruh masalalari kichikroq taksonlarga bo'linadi.

Hisoblash masalalari ham o'z navbatida guruhlariga bo'linadi. Kimyoviy masalalarning ko'plab tasniflari mavjud. Ular o'z qo'llanmalarida o'zlarining tasniflarini taklif qildilar S.G.Shapovalenko, G.M.Chernobelskaya [3], D.P.Erygin [138], E.A.Shishkin [4], N. G. Rahmatullayev, H.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov [5]. Uslubiy va o'quv adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda kimyo fanidan masalalarni tasniflashda turlicha yondashuvlar mavjud, tasniflash variantlari ko'p, hozirda kimyodan masalalarning yagona tasnifi mavjud emas. Masalalarni tasniflashning asosiy mezonlari bo'yicha guruhlariga bo'linadi: masalalarni echishni o'rganish vaqti (sinf bo'yicha), echish usullari, masalalar turlari (aniqlanishi kerak bo'lgan tushinchalarga qarab), javob olish uchun hisoblashlarga bo'lgan ehtiyojga qarab guruhlariga bo'linadi.

Klassifikatsiyalar yaratishda klassifikatsiya mualliflari tur, guruh, kabi taksonlar ustida ishlaganlar. Ular bu tushunchalarga aniq ta'riflar bermagan va u yoki bu atamaning qo'llanilishini asoslamagan. Ba'zi mualliflar takson nomlaridan, ular alohida bo'limlarga nom bermasdan raqamlashdan foydalanganlar.

References:

1. G.T.Ikromov, Sh.X.Shomurotova. Kimyo fanidan masalalar echish orqali o'quvchilarda bilish darajasini oshirish.// O'zbekistonda fanlar aro innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.17-son/20.03.2023.541-544 b
2. Nishonov, O.O.O'rinova. "Eksperimental masalalar echish bilim, ko'nikma, va malakalarni mustahkamlash metodi sifatida".Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 7(100), chast 1// "Nauchniy fokus" noyabr, 2023.1063-1067 b.
3. Г. М.Чернобельская. Методика обучения химии в средней школе. - //М.: Гуман. центр. "Владос", 2000. - 336 с.
4. Д. П.Ерыгин, Е. А.Шишкин .Методика решения задач по химии: Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по биол. и хим. спец. - //М.: Просвещение, 1989.-176 с.
5. N. G. Rahmatullayev, H.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov. "Kimyo o'qitish metodikasi".Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.// "Iqtisod moliya".2013.191b.